

SHE'RIY TIZIMLARDA SHAKL VA BADIY TASVIR YANGILANISHLARI

*Eshdavlatova Aziza Ubaydulla qizi,
Qarshi davlat universiteti doktoranti*

Annotatsiya. Ushbu maqolada jahon she'riy tizimlarida janr va shakl masalalari, lirik janrlar tasnifi ilmiy-nazariy jihatdan yoritib berildi. Zamonaviy o'zbek adabiyotida "She'r" atamasi ma'nosini erkinroq tushunish, oldingi shakliy qoliplarni o'zgartirgan holda yangi poetik kashfiyotlar qilishga intilish tamoyili kuchli. Shuning uchun ham o'zbek nazmda "oq she'r", "sochma she'r", "nasriy she'r", "tasbih", "uchchanoq" singari she'r shakllari paydo bo'lmoqda. Maqolada janr va shakllarda badiiy tasvir yangilanishlari tahlillangan.

Kalit so'zlar: tonik, aruz, A.Husayniy, mudavvar, grafik she'r, meditatif.

ОБНОВЛЕНИЕ ФОРМЫ И ХУДОЖЕСТВЕННОГО ОБРАЗА В ПОЭТИЧЕСКИХ СИСТЕМАХ

*Эшдавлатова Азиза Убайдулла кизи,
докторант Каршинского государственного университета*

Абстракт. В данной статье с научной и теоретической точки зрения раскрыты вопросы жанра и формы, классификации лирических жанров в мировых поэтических системах. В современной узбекской литературе утвердился принцип более свободного понимания значения термина «Поэзия», стремления к новым поэтическим открытиям путем изменения прежних формальных закономерностей. Именно поэтому в узбекской поэзии появляются такие формы поэзии, как «белая поэзия», «поэзия сочма», «поэзия в прозе», «тасбих», «уччанок». В статье анализируются обновления художественного образа в жанрах и формах.

Ключевые слова: тоник, аруз, А.Хусайний, мудаввар, графическая поэма, медитативная.

UPDATES OF FORM AND ARTISTIC IMAGERY IN POETIC SYSTEMS

*Eshdavlatova Aziza Ubaidulla kizi,
doctoral student of Karshi State University*

Abstract. In this article, issues of genre and form, classification of lyrical genres in world poetic systems were explained from a scientific and theoretical point of view. In modern Uzbek literature, there is a strong principle of a freer understanding of the meaning of the term «Poetry», striving to make new poetic discoveries by changing the previous formal patterns. That is why in Uzbek poetry, such forms of poetry as «white poetry», «sochma poetry», «prose poetry», «tasbih», «uchchanoq» are appearing. The article analyzes artistic image updates in genres and forms.

Key words: tonic, aruz, A.Husayniy, mudavvar, graphic poem, meditative.

Kirish. Xalqning, millatning o'zligini tanish, shaxs, tafakkur erkinligi tuyg'usini ifodalash she'riyatning roli va o'rnini belgilab beradi. She'riyatning bunday mohiyati shakl va mazmun mutanosibligida yuzaga chiqishi ham ayni haqiqat. Shu ma'noda she'riyatga berilgan ta'riflar tahlili muammoni aniqlash va ularning yechimi borasida ma'lum xulosalarga kelish imkonini beradi. "Adabiyotshunoslik terminlari lug'ati"da she'rga quyidagicha ta'rif beriladi: "She'r — ohang jihatidan bir tartibga solingan, his-tuyg'u ifodasi sifatida vujudga kelgan hayajonli ritmik nutq" [12]. "She'r — fikr ekstrakti bo'lishi jihatidan hikmat, ko'ngilga yo'l topishi, undan o'ziga hamohang sado chiqarishi jihatidan musiqa. She'r — oshiqning ohi, musibat diydaning ko'z yoshi, saodat va surur ifodasi bo'lgan hahaha tovushi. She'r — ko'ngilning oynasi, ko'ngilda nima bo'lsa, shuni aks etadi. She'r — ma'sum go'dak, riyoni bilmaydi. She'r — bir

mo'jiza... Poeziya — yuksak san'at [16]", "...she'rda kishilarning qonini qaynatg'uvchi, singirlarini o'ynatg'uvchi, miyasini titratg'uvchi, sezgusini qo'zg'atg'uvchi bir kuch, ma'naviy bir kuch bor. Shunday bir kuchi bo'lmagan so'z "vazn" va "qofiya"ye bo'lsun, she'r bo'la olmaydur... Chin she'r yurak sezgularini ko'rsatmakdir. Vazn va qofiya esa so'zning bezagidir" [23].

Tadqiqot metodologiyasi

Adabiyotshunos olim T.Boboyev she'r va uning tuzilishi haqida: "She'r tuzilishi — she'riy nutq musiqiyiligi va ritmini uyushtiruvchi usul, adabiy-badiiy vosita. She'r tuzilishi deganda murakkab tizimni ko'z oldimizga keltiramiz. Chunki she'r to'qimasida ko'plab g'oyaviy-badiiy unsurlar bo'ladi. Mavzu, g'oya, naqarot, band, ritm, vazn, qofiya, intonatsiya, pauza, urg'u, poetik figuralar, fonetik usullar, badiiy san'atlar, obraz, syujet, kompozitsiya, konflikt, badiiy til unsurlari va boshqalarning muayyan bir tizimga uyushuvidan she'r paydo bo'ladi" [13],- deb ta'kidlaydi. Har bir she'r ma'lum o'lchov qoidalari (vazn) asosida yaratiladi. Bunga ko'ra muayyan o'lchov tamoyillariga asoslangan vaznlar majmui "she'r tizimi"da jamlanadi. Jahon xalqlari she'riyatida mavjud she'riy sistemalar bo'g'inning miqdori (sillabik she'r tizimi), urg'uli yoki urg'usizligi (tonik), cho'ziq yoki qisqaligi (metrik), baland yoki past talaffuz qilinishi (melodik) kabi jihatlarni o'lchov asosi qilib oladi.

Adabiyotshunos olim U.To'ychiyev o'zbek she'riyatida beshta she'riy tizim mavjudligini ta'kidlaydi [18]. Bular — barmoq tizimi, aruz tizimi, bo'g'in-urg'u tizimi, miqdor-urg'u tizimi va qorishiq tizim. Professor T.Boboyev o'zining "She'r ilmi ta'limi" kitobida bu beshta tizimdan faqat aruz va barmoq tizimlari o'zbek she'riyati uchun asosiy tizim ekanligini, qolgan uchtasi u qadar keng tarqalmaganini aytib o'tgan. Aflotun va Arustu asarlarining tarjimoni Abu Nasr Forobiy o'zining "Kitobu-sh-she'r" asarida arab va yunon she'r tizimini o'zaro qiyoslaydi. Forobiy she'riy asarning ikki muhim unsuri - ma'no va vazn bo'lib, ular she'rning asosi bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi: "She'riy so'zlar ma'lum vaznga tushirilib, she'riy bo'laklarga bo'linsagina aytilgan so'zlar she'r bo'la oladi. Qadimgi shoirlar nazdida she'r tuzilishi va uning javhari – asosi ana shulardan iborat bo'lgan" [11].

Aruz she'r tizimi arab adabiyotida VIII asrdan, fors adabiyotida esa IX asrdan paydo bo'lganini mutaxassislar qayd etadilar. Turkiy adabiyotga aruzning qachon kirib kelganligi haqida bahsli fikrlar mavjud bo'lib, adabiyotshunos Fitrat quyidagicha ma'lumot beradi: "Bizning O'rta Osiyo turklari tomonidan qachon qabul etilgani aniq emas. Biroq hijriy 462 da Qashqarda yozilgan mashhur "Qutadg'u bilik" kitobining shu aruz vaznida yozilg'ani e'tibor etilsa, juda eskidan qabul etilgani ma'lum bo'latur" [22]. Tatar adabiyotshunosi X.Gosman "Tatar shigire" (Kazan, 1964) kitobida turkiy xalqlar she'riyatida aruz va barmoq islom kirib kelguncha ham qorishiq holda mavjud bo'lganini, poeziyadan musiqaning ajralishi hamda yozma adabiyotning paydo bo'lishi barmoq va aruzning ajralishiga sabab bo'lgan, deb izohlaydi. Fitratning fikrlariga asoslanib, D.Quronov turkiy aruzning paydo bo'lishini X-XI asrlarga to'g'ri keladi deb hisoblaydi. Tadqiqotimiz muddaosiga ko'ra, aruzdagi she'r janrlari va shakliy semantikasini tahlilash vajidan aruzshunoslikdagi ilmiy manbalarga murojaat etdik. Professor Hamidulla Boltaboyev Shayx Ahmad ibn Xudoydod Taroziy (XV asr) "Fununu-l-balog'a" ("Balog'at fanlari") asarida sharq adabiyotshunosligining besh muhim tarmog'i: she'r nav'lari, qofiya va radif, badiiy san'atlar va aruz vazni hamda muammo janri masalalari aks etganligini keltirib o'tadi [1]. "Fununu-l-balog'a"da "Aqsomu-sh-she'r" (She'r taqsimi) rukni ostida quyidagi 10 ta she'r nav'i tasnif qilingan: qasida, g'azal, qit'a, ruboiy, masnaviy, tarje', musammat, mustazod, mutavval va fard" [8]. Olim ushbu tasnif bilan cheklanmasdan har bir she'riy janrning mohiyati, o'zgarishi, tamsillari va boshqa jihatlarni jiddiy tahlildan o'tkazgan. Bu o'n nav' asosiy she'r turlari sanab, ularning janr xususiyatlari saqlangan holda yozilajak tavhid, munojot, manoqib, tamadduh, mazammat va mutoyiba kabilar mustaqil janr bo'lmay, ular yuqorida keltirilgan o'n nav'dagi shakllarga mos holda ularning vazn va qofiyasini

saqlab yozilajagini tushuntiradi, deydi H.Boltaboyev [1].

Mumtoz she'riy shakllar haqida to'liqroq ma'lumot beruvchi asar Atulloh Husayniyning "Bade'u-s-sanoye" asari hisoblanadi. Asar uch katta qismga bo'lingan bo'lib, "Lafziy san'atlar deb nomlanuvchi birinchi qismidan bir qancha mumtoz she'r shakllari haqida ilmiy ma'lumot olish mumkin. Adabiyotshunos, yozuvchi Sa'dullo Quronov o'zining "Zamonaviy o'zbek adabiyotida sintez muammosi (she'riyat va rangtasvir san'atlari misolida)" mavzusidagi dissertatsiyasida: "Sharq mumtoz adabiyotida ham grafik she'rlarning o'ziga xos tarixiy yondashuvini ko'ramiz. Atulloh Husayniy o'zining "Badoyi' us – sanoyi" asarida mumtoz she'riyatimizdagi grafik she'rlarning ayrim turlarini keltirib o'tadi..." [6]deb asoslaydi. Tadqiqotimiz doirasiga kiruvchi grafik she'rlarning o'zbek mumtoz she'riyatidagi tarixiy namunalari A.Husayniy tomonidan quyidagicha berilgan:

"Murabba" andin iboraturkim, to'rt misra yoki to'rt bayt aytilur, yozilg'anda ham bo'yiga ham eniga o'qisa bo'lur. Misralar murabba'i andog'dur:

Az furqat-i	on dilbar	man doyim	Bemoram
On dilbar	k-az ishqash	bo dardam	u bedoram
Man doyim	bo dardam	be munis	u be yoram
Bemoram	u bedoram	u yoram	u g'amxoram

1-rasm. Murabba' she'r.



3-rasm. Mudavvar she'r. 4-rasm. Mushajjar she'r.

Mudavvar uldurkim, bir nazm aytib uni doira shaklida yozurlar va bir nechayeri bo‘lurkim, alarning qaysi biridin boshlasalar, nazmu- navo to‘g‘ri chiqar;

Mushajjar andog‘ she‘rdin iboratturkim, ani daraxt shaklida berurlar, quyidagi qit‘a yanglig‘.[27]

“Badoyi‘ us-sanoyi‘” asarining V qismi “Lafziy go‘zalliklar, o‘shul hukmdag‘i va xat suvratig‘a taalluqlug‘ go‘zalliklar bayonida” deb nomlanadi. Bu qismda “xat suvratig‘a” bog‘liq ko‘plab she‘riy san‘atlar haqida ma‘lumot olish mumkin. Masalan, muqatta‘ san‘ati “ul kalomdin iboratturkim, so‘zlardagi hamma harflar bir-biridan ajralg‘an bo‘lur”, muvassal “andoq kalomdin iboratturkim, aning hech bir so‘zining harflari yozuvda ajralmag‘ay”, raqto “andoq kalomdin iboratturkim, har bir so‘zning bir harfi kalom oxirig‘acha nuqtalig‘ va bir harfi nuqtasiz bo‘lur”, e‘not “...kotib yo shoir so‘zni bezash uchun vojib bo‘lmag‘an va so‘z onsiz ham durust to‘liq bo‘lg‘an bir nimani takalluf qilur... maqsad so‘zni bezashtur” [27].

Tadqiqotimiz doirasida o‘rganilayotgan she‘r shakllari XIX-XX asr Xorazm adabiy muhitida ham shoirlar tomonidan keng qo‘llangan. “Komyob hayoti va ijodiy merosi manbalari tadqiqi” mavzusida tadqiqot olib borgan J.Jo‘rayev o‘z dissertatsiyasida Komyob devonida ham 7 baytli mu‘aqqad she‘r mavjudligini, g‘azal baytlari doira va uning ichiga chizilgan yettita yoysimon qo‘shchiziq (parallel chiziq) ichiga joylashtirilganligini ilmiy dalillaydi. [14] Shams Qays Roziy “Al-mujam” asarida Husayniy aytganlariga bir oz qo‘shimcha tarzda bunday san‘atga asoslangan chizmalar ichida berilgan she‘rlarning bir-birini kesib o‘tgan o‘rinlardagi so‘zlar ketma-ketlikka ko‘ra jamlanganda yana boshqa bir she‘r hosil bo‘lishini ham bildirgan. Roziy sakkiz joyidan bir-birin kesib o‘tishidan geometrik shakl hosil qiluvchi qo‘shchiziq ichida yozilgan she‘rni keltirgan. Shuningdek, mazkur chiziqlarning kesishgan joyidan o‘rin olgan so‘zlar yig‘indisidan qanday qilib bir bayt she‘rning hosil qilinish yo‘li ham ko‘rsatilgan [24].

Mu‘aqqad san‘ati bilan yozilgan she‘rlar xilma-xil ko‘rinishdagi o‘zaro bir-birini kesib o‘tishidan geometrik shakl yasovchi chizmalar ichida joylashtiriladi. Bu lug‘atda aytilganidek, bir tizimga bog‘langanga o‘xshaydi. Komyob g‘azalida qo‘llangan she‘riy san‘at esa mu‘aqqad san‘atining ko‘rinishlaridan biridir. [14] R.Musulmonqulov ham namuna keltirmagan holda geometrik shakllarga tayanib hosil qilinadigan bunday san‘atlarning X-XV asrlarda fors-tojik she‘riyatida eng mashhurlaridan bo‘lgan oltitasini sanab o‘tgan: murabba‘ (to‘rt burchak), musaddas (olti qatorli), musamman (sakkiz qatorli), mudavvar (doira shaklida), mu‘aqqad (chalkash), mushajjar (daraxtga o‘xshash) [17]. A.Husayniy ushbu grafik she‘rlar tasnifini she‘r san‘atlariga ko‘ra ajratayotgan bo‘lsada, ifodada dastlab shakl ko‘zga tashlanishini, she‘rdagi ma‘no uyg‘unligi ikkinchi planga o‘tganini ko‘rishimiz mumkin. Bu esa o‘z navbatida aruz she‘r tizimining sistematik tuzilishi qanchalik murakkab va aniq bo‘lsa, semantik imkoniyatlari ham shunchalik yuqori ekanligini ko‘rsatadi. Mumtoz adabiyotimiz darg‘alaridan hazrat Navoiy she‘r shakli haqida yozar ekan, uning shakli qanday bo‘lmasin, ma‘nosi “xo‘b” bo‘lishi lozimligini uqtiradi:

“...Nazmda ham asl anga ma‘ni durur,

Bo‘lsun aning surati har ne durur.

Nazmki ma‘ni anga marg‘ub emas,

Ahli maoni qoshida xo‘b emas” [3].

Tahlil va natijalar

Mutaxassislar shakl va mazmun juftligi atrofida juda ko‘p bahsli fikr bildirsalarda, har ikkisi bir butun holda yagona maqsadga xizmat qilishini inkor etmaydilar. Mazmun va shaklning bir-biriga o‘tishi genetik asosga egadir. Buni muayyan turg‘un janrlar misolida ham ko‘rish mumkin. Masalan, “g‘azal” janri dastlab paydo bo‘lganida mazmun hodisasi

edi. Uning mazmun hodisasi bo'lganini so'zning lug'aviy ma'nosi ham yaqqol ko'rsatib turadi. Ya'ni, so'z ma'nosidan kelib chiqilsa, "ayollarga xushomad, maqto'v, muhabbat" mazmunidagi she'riy asar borki g'azal deb yuritilgan. Keyincha, g'azal ayni mazmunni ifodalash uchun eng optimal shakl kasb etgach, u shakl hodisasiga – turg'un she'riy janrga aylandi. Endi g'azal deb ataluvchi shaklda tamoman boshqa (mas., falsafiy, tasavufiy, hajviy) mazmunni ifodalash ham mumkin bo'ldi. Xuddi shu gapni "novella"ga nisbatan ham aytish mumkin. Italyancha "yangilik" so'zidan olingan "novella" dastlab janr, ya'ni shakl hodisasi bo'lmay, mazmun hodisasi edi. Novella deyilganda an'anaviy voqeband asarlardagi syujetlarni takrorlamaydigan, o'quvchida jonli qiziqish uyg'otuvchi yangi voqea-hodisadan xabar beruvchi asar tushunilgan. Ayni paytda, novella o'ziga xos shakl xususiyatlariga ham ega bo'lgan: qisqalik, syujetning shiddat bilan rivojlanishi, kutilmagan burilishlarga egaligi kabi. Keyincha novellaga xos shakliy xususiyatlar muqimlashib, o'ziga xos shakl – novella janri yuzaga keladi [5]. Adabiyotshunos olim To'xtamurod Boboyev she'r tuzilishida 2 xil unsurlarni ajratadi: a) mazmunga oid unsurlar; b) shaklga oid unsurlar. Olim har ikki unurni bir-biriga bog'liq va bir-biridan ajratib bo'lmaydi, gohida ulardan biri ikki vazifani ham bajara oladi, deb hisoblaydi [13]. Misralardagi bo'g'inlar sonining tengligiga asoslanuvchi barmoq vazni XX asr boshlarida o'zbek adabiyotiga kirib keldi va bir qancha vaqt o'zining turg'un odatiy shaklini saqlab turdi. Barmoq vazni turkiy til xususiyatlariga asoslangan she'r tizimidir. Shuning uchun o'zbek xalqining eng qadimgi og'zaki she'riyati namunalari ayni shu vaznda yaratilgan. Mahmud Koshg'ariyning "Devoni lug'otit turk" asaridagi to'rtliklar, xalq qo'shiqlari barmoq vazniga mansub bo'lib, ular asosan yetti bo'g'indan tuzilgan, 4+3 shaklida turoqlangan, a-a-a-b tarzida qofiyalangan. Barmoq vaznidagi she'rlarda turoq - qofiya, band, ritm (zarb)ni vujudga keltiradigan asosiy unsur hisoblanadi.

A, 9, 4+5 Bir she'r fikri //yarq etdi nogoh,

B, 9, 4+5 Vujudimda //g'alayon tuydim.

A, 9, 4+5 Yarq etdi-yu, //men bo'lmay ogoh

B, 9, 4+5 Bir lahzada //yo'qotdim-qo'ydim [10].

Ardoqli shoirimiz Erkin Vohidov asosan barmoq vaznida she'rlar yaratdi. Shoirning she'rlarida o'zbekona qadriyatlarimiz, soddalik, ravonlik, falsafiy dunyoqarash, folklor an'analari go'zal ifodasini topgan.

Xayollaring teran va uchqur.

Seni bukun qilmoq uchun band

Shoir kerak Bedilday chuqur,

Navoiyday dono, sarbaland. [10]

Barmoqda an'anaviy shaklga amal qilinishi she'rdagi ohangdorlikni, qofiyalarning mosligi to'g'ri va intonatsion talaffuzni kuchaytiradi. O'zbek tilining ifoda va ohang imkoniyatlari, grammatik-stilistik qurilishi — barmoqni milliy she'riy sistema sifatida bunyodga keltiradi [9]. "Barmoq vazn - butun turklar uchun-da, biz o'zbeklar uchun-da milliy vazndir, musulmonlardan burun butun turk shoirlar shul barmoq vazni bilan tizimlar, she'rlar yozar edilar" [23], — deb ta'kidlaydi A.Fitrat. Adabiyotshunos D.Quronov aruz hamda barmoq tizimlaridan tashqari erkin va sarbast she'rlarni ham keltiradi, olim erkin va sarbast she'rlarni tizim o'laroq izohlamasada, erkin she'rlarning "barmoq asosida" vujudga kelganligini asoslaydi: "Barmoq asosidagi erkin she'r XX asrning 20-yillaridan keng ommalashdi. O'zbek erkin she'riga xos xususiyat shuki, unda misralardagi bo'g'inlar soni turlicha, ularning o'zaro qofiyalanishi qat'iy tartibda emas, biroq she'r davomida o'lchovda teng bo'laklar – bir yoki bir necha nav turoqlar erkin tarzda takrorlanishi hisobiga muayyan ritmiklik hosil qilinadi. Masalan, Cho'lponning hajman ancha kattagina "Po'rtana" she'ri 6 (74 ta), 5 (16 ta), 3 (59 ta) va 2 (9 ta) bo'g'inli turoqlardan tarkib topgan. Ko'rinib turganidek, turoqlarning katta qismi 6 bo'g'inli.

Bundan tashqari, 3 bo‘g‘inli turoqlarning yarmi – 30 tasi 3+3 bog‘lamida, ular ham o‘qilganda 6 bo‘g‘inli turoqlarga vaznda tengdek taassurot qoldiradi” [5]. Professor T. Boboyev “erkin vazn”, professor H. Umurov esa “erkin she‘r sistemasi” deb ataydi. Erkin she‘rning asosiy sharti shaklning mundarijaga to‘la muvofiq bo‘lishidir. Erkin she‘rda satrlar shunday tartibda bo‘lishi kerakki, buning natijasida she‘rdagi intonatsiya shoirning fikrlarini, ruhiy holatini, his-tuyg‘ularini, kayfiyatini to‘la ifoda etsin. Erkin vaznning muhim xususiyatlaridan biri — ayrim misralardagi bo‘g‘in (so‘z)larni (ma‘no va intonatsiyani kuchaytirish maqsadida) bir necha qatorga zinapoya tartibida joylashtirish (gradatsiya usuli)dir [13]. Bitta she‘r doirasida bo‘g‘in, turoq, misra, band, qofiya, ritmik pauza kabi vositalarning mazmun va ohang talabiga mos tarzda tovlanishi (rangbarang va erkin bo‘lishi) erkin she‘r sistemasining bosh qonunidir. Bu sistema (erkin, oq, sarbast she‘r yo‘llari) xalq tiliga — oddiy so‘zlashuv tiliga judayam yaqinlashgani bilan ajralib turadi. Xalqqa xos bo‘lgan oddiy, “qo‘pol” so‘zlar ham, so‘z birikmalari ham bu sistemaga kira bildilar, odatdagidan ko‘ra katta vazifani — poetik olam obrazini yarata oldilar. Bu xususiyat sistemaning ommabopligini, jonliligini, zarurligini ta‘minladi [9]. Tadqiqotimiz obyekti hisoblangan shoirlarimiz Rauf Parfi va Faxriyor ijodida erkin vazndagi she‘rlar salmoqli o‘rin tutadi.

Hasratimning
 Suyuq toshlaridan
 Daxma qurmoqchiman
 O‘zimga.

Ichida o‘z jasadim bo‘lsin. [4]

Rauf Parfining ushbu she‘ri yapon shoiri Isikava Takubokuga bag‘ishlangan. Shoir o‘z ilhomini, tafakkur oqimini aynan erkin vaznda to‘liqroq namoyon etadi. Nafaqat shakl va vaznda erkinlikni saqlaydi, balki so‘zlarni qo‘llashda ham mutlaqo noodatiy yo‘ldan boradi. Xususan, toshning qattiqligi odatan barchaga ma‘lum, ammo ijodkorning tuyg‘u olamida narsalar o‘z tabiatidan boshqa xususiyatlarni ham oladi. “Suyuq tosh”lar shoir hasratining juda ham og‘ir va qattiq ekanligidan dalolat beradi.

soat sayin
 soniya sayin
 hayot ortingdan
 surib kelar o‘tmish devorini
 orqaga yo‘l yo‘q. [20]

Faxriyorning ushbu she‘rida o‘tmish va kelajak muqoyasasi shavqatsiz dalillar, inkor etib bo‘lmaydigan haqiqatlar bilan kechadi. “Borliqning mavjud ifoda qoliplaridan qochish, aslida, borliqning asl mohiyatiga yanada yaqinlashtiradi” [2], o‘tmishni devor shaklida ko‘rish, har lahzaning mohiyati o‘tmishga aylanib, o‘sha devor ortida qolish ekanligini anglatish shoirning asl maqsadidir.

Erkin she‘rlar Yevropa xalqlari she‘riyatida, ayniqsa, keng tarqalgan. Erkin vazndagi she‘rlarda ham ichki ritm, ichki musiqiylik muayyan jarangdorlik mavjud bo‘lib, bu vaznda ham qator mashhur asarlar yaratilgan. Jumladan, M. Lermontovning “Maskarad” dramasi, A. Griboyedovning “Aqlilik balosi” komediyasi, Nozim Hikmatning “Inson manzaralari” asari erkin vaznda yozilgan. G‘afur G‘ulom, Hamid Olimjon, Usmon Nosir, Mirtemir, Rauf Parfi singari ko‘plab o‘zbek shoirlarining bu vaznda yozgan she‘rlari g‘oyat e‘tiborlidir.

Yangi tong...
 Tongda erib ketdi
 Kecha.
 Uyqusini quvib ko‘chaning

Avtolar shovqin solib kechar.
Dunyo so‘rarmidim sendan,
Do‘stim, shu daqiqa.
Shunchaki, tong nafasi yanglig‘
Tabassuming kerak
Faqat [7].

Zamonaviy o‘zbek adabiyotida “She’r” atamasi ma’nosini erkinroq tushunish, oldingi shakli qoliplarni o‘zgartirgan holda yangi poetik kashfiyotlar qilishga intilish tamoyili kuchli. Shuning uchun ham o‘zbek nazmida “oq she’r”, “sochma she’r”, “nasriy she’r”, “tasbih”, “uchchanoq” singari she’r shakllari paydo bo‘lmoqda. She’rning eng kichik ko‘rinishi mumtoz adabiyotda 1 baytdangina iborat bo‘lsa (fard), o‘zbek folklorida 4 qatorni tashkil etadi (to‘rtlik). Bir misradan iborat she’r yaratishga ham urinishlar bo‘lgan (rus she’riyatida “monostix” — bir she’r deb nomlangan). She’rning qofiya, tinish belgilari va grammatik qoidalar iskanjasida qolishini istamayotgan bir qator shoirlar qofiyasiz, grammatik qoidalar va tinish belgilariga rioya etilmay yozilgan she’rlar yaratmoqdalar.

Professor U.To‘ychiyev lirik tur va janrlarni tasnif qilar ekan, ularni, avvalo, ikki katta guruhga ajratadi: 1.Mazmun jihatdan tashkil topgan janrlar. 2.Shakl jihatdan tashkil topgan janrlar hamda har ikki guruhni yana uch bo‘limga ajratadi. Mazmun jihatdan a) estetik belgi, pafos va muayyan mazmun yo‘nalishiga asoslanadigan janrlar: marsiya, elegiya, invektiva va boshqalar; b)asosan, musiqa asari hisoblansa-da, adabiy matnga ham suyangan janrlar: romans, kantata, marsh va boshqalar; v) og‘zaki va yozma lirikada qo‘llanib kelingan janrlar: alla, yor-yor.

Shakl jihatdan esa a) shakl mazmundorligi va tuzilishiga ko‘ra lirika janrlari: aytishuv, mustazod, sonet va boshqalar; b) misra soni va kompozitsiyaga ko‘ra lirika janrlari: musallas, murabba’, muxammas, musaddas va boshqalar; v)qayta tashkil topish (transformatsiya)ga ko‘ra lirika janrlari: qit‘aiy, kesishgan, taronaiy, ruboiyona [19]. Mazkur tasnif zamonaviy lirika janr va shakllarining asosiy qismini qamrab oladi. Biroq “o‘tgan asrning 80-yillarida adabiyotga kirib kelgan avlodning asarlari o‘zidan oldingi avlodga qaraganda, so‘zning nafaqat ma’no qatlami, balki ifoda qatlamlarining rang-barangligiga, janrlar qorishig‘ida turli shakllar formulasi topishga urinishlari, poetik mushohoda erkinligiga urg‘u berganligi, shakl va mazmunda serqatlamlilik, poetik g‘oyalar assotsiativ rakursga qurilganligi, o‘quvchilardan nafaqat mutolaa, balki adabiy xabardorlik va bevosita muallif bilan baravar muloqat talab qilishi, fikrda va tasavvurda, so‘zda badiiy o‘yin uyushtirishi kabi jihatlariga ko‘ra jahon adabiyotining konseptual adabiyotga moyilligi bilan alohida ajralib turadi” [2]. Shu boisdan ham shoirlarimiz tomonidan qo‘llanayotgan yangi-yangi she’r shakllari, turli janr tajribalari borki, bunday ijod mahsullari adabiyotshunosligimizda yangi tadqiqotlar, yangi qamrovli tasniflar qilish zaruratini tug‘dirmoqda. Adabiyotshunos Jamol Kamolning quyidagi fikrlari bugungi adabiy lirik jarayonni yanada kengroq qamrab oladi: “Lirikamizning bugungi janr qiyofasini ko‘proq qandaydir qorishiq, eski, “sof janr” talablaridan xoli, “universal”, sintetik she’riy shakl belgilamoqda. Bu shakl, asosan, she’riyatimizda inson ichki dunyosini yanada kengroq o‘zlashtirishga qaratilgan realistik uslubning qaror topishi bilan bog‘liq ravishda ro‘yobga chiqayotir. Mazkur “qorishiq janr”ning asosiy belgilari nimalardan iborat? Bular: a)lirik ifodaning erkin parvozi; b)kechinmalar dialektikasining yaratilishi; v)mushohada doirasiga tushgan eng uvoq maydachuydalarni ham shu ondayoq qayd etilishi; g)bevosita nutq-monolog bilan uchqur suvrat-tasvirlarning almashinib turishi; d)vazn va turoqning erkin qo‘llanishi kabi xususiyatlardir. Lirik she’riyatning ijtimoiy hayotga faol aralashuvi, sotsial taraqqiyotga yanada kuchliroq ta’sir o‘tkazishga intiluvi ana shunday universal bir janrning yuzaga

chiqishiga sabab bo'ldi [15]. Professor Dilmurod Quronov hozirgi she'riyatimizning subyektiv tashkillanishiga e'tibor qaratadi. U she'rdagi kechinma egasiga ko'ra ularni uch turga ajratadi. 1. Avtopsihologik lirika. 2. Ijroviy lirika. 3. Personajli lirika. D. Quronov personajli lirikaga E. Vohidovning "Hozirgi yoshlar", A. Oripovning "Samolyotda yozilgan she'r", X. Davronning "Dunyo go'zal", "Bobur" kabi qator she'rlarini kiritadi va tahlil qiladi [5]. "Qari tolga suyab// Irg'ay asoni, // Oqsoqol so'riga asta yonboshlar. // Xayoldan o'tkazar kori dunyoni: // "Eh, hozirgi yoshlar, // Hozirgi yoshlar!" [10] Quronov o'z darsligida meditatif va tavsifiy lirikaga ham to'xtalib, ular lirik kechinma obyektiga ko'ra farqlanishini aytib o'tadi. "Meditativ lirikaning kechinma obyekt – ko'ngil, ya'ni bu holda lirik subyekt bir vaqtning o'zida obyekt hamdir. Tavsifiy lirikaning kechinma obyekt esha ko'ngildan tashqaridagi voqelikda (narsa, hodisa, holat, voqea, shaxs va b.), subyektning his-kechinmalari o'sha obyektga tavsiflash orqali ifodalanadi" [5]. E. Vohidovning "Jumadan qolgan odam", "Qumursqalar jangi", "Tangri va yamoqchi", "Oqsoqol", "Vafo" she'rlari tavsifiy lirikaga misol bo'la oladi. Meditatif lirikaga oid ijod mahsullari esa har bir ijodkorning ko'ngil holatini, tuyg'ular mezonini, ishq, hijron, sog'inch motivlarini o'z ichiga oladi. Adabiyotshunos G. Ernazarova meditatif lirikaga bag'ishlangan doktorlik dissertatsiyasida o'zbek she'riyatida meditatif lirikaning o'rnini quyidagicha belgilaydi: "Yetakchi xususiyati samimiylik va sog'inch bo'lgan she'rlarda, bizningcha, kompozitsion, struktur tuzilishning o'zidayoq meditatiflik yaqqol namoyon bo'ladi. Chuqur mushohada, botiniy iztirob va armon ohangini lirik ifodalashda kompozitsiya, struktura ham birdek xizmat qiladi. Ma'lum bo'lyaptiki, so'z va so'z orqali ifodalangan hissiy materialning shoir g'oyasini ifodalashga xizmat qiladigan, o'quvchi his-sezgilarga ta'sir o'tkazadigan tartibda joylashuvi faqat ijodkor mahorati va ijodiy niyati bilan bog'liq emas. Obyekt haqidagi chuqur meditatif mushohada, voqealik muhokamasi jarayonidagi pafos, obyekt-shaxsga nisbatan mehr-muhabbat, armonning mavjudligi she'rning qurilish jihatlarini belgilashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Teran mushohada, boshqalarnikiga o'xshamaydigan ideal ma'noga intilish adabiy iste'dodning bir belgisidir. Meditatif she'riyatda milliy tarix, ijtimoiy ideal va falsafiy tafakkur hamda o'zgalar unchalik e'tibor ham bermaydigan hodisalar, turmush voqealari, odamlar, xarakterlar, holatlar, oddiygina detallar haqiqiy iste'dod egasini chuqur mushohada yuritishga undaydi. Natijada lirik meditatiflik, original she'r dunyoga keladi" [26]. Rauf Parfning "Tavba", "Sensiz", "Muhabbat" she'rlari, Faxriyorning "Sensizlik", "Ishq balosi", "Izlam", "Muhabbatdan so'ng" she'rlari meditatif lirikaga misol bo'la oladi. "Armon – jo'natilmay qolgan ko'hna xat", "Men senga sochildim tariqday// Sen kim bo'lib menga qaytarsan, // Men o'zimni senda suyarman // Seni topganimdan kuyarman", "Lahzada sevgimiz qaridi // Baxtimmidi sochlaring – qaro, // Senga yetmay tentirar so'zim // muhabbatim aqldan ozgan" [20]. Ushbu satrlarda Faxriyorning sof ko'ngil kechinmalari aks etadi.

Xulosa

Bugungi adabiy jarayon, zamonaviy she'riyat nuqtayi nazaridan an'anaviy janrlarning salmog'i uncha yuqori emas. Shu bois o'tgan asrning 20-yillaridan buyon, salkam yuz yillik vaqt davomida yangi davr she'riyatini atroflicha o'rganish va tasnif etishga qaratilgan bir qancha nuqtayi nazarlarga duch kelamiz. Mazmun va shakl masalasidan kelib chiqadigan bo'lsak, har bir she'r o'zining g'oyasi va shakli bilan tug'iladi. Ma'lumki, shaklning ko'rinishini g'oya belgilaydi. Umuman, bu juda murakkab ruhiy-psixologik jarayon bo'lib, shoirning dunyoqarashi, didi, tasvir uslubi kabi qator masalalar muhim rol o'ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

Boltaboyev H. Jahon adabiyotshunosligi tarixi. Toshkent., 2019. – B.137.

Eshonqul N. Geometrik shoir yohud avlodning avangard shoiri ijodiga chizgilar. kh-davron.uz

Navoiy A. Hamsa. –Т.: Yangi asr avlodi, 2015. – В.123.

Parfi R. Iymon asiri. – Toshkent.: Akademnashr, 2023. – В.82.

Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. Toshkent.: Akademnashr, 2018. – В.109-110.

Quronov S. Zamonaviy o‘zbek adabiyotida sintez muammosi (she’riyat va rangtasvir san’atlari misolida): Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori dissertatsiyasi. – Toshkent., 2018.

Rauf Parfi Sakina. Toshkent.: Muharrir, 2013. – В.90.

Shayx Ahmad Taroziy. Fununu-l-balog‘a. Т.: Xazina, 1996. – В.4.

Umurov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi. Toshkent.: A. Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 2004. – В.199.

Vohidov E. Saylanma. 2-jild. Toshkent.: Sharq, 2001. – В.11.

Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri / Arabchadan tarjima, izoh va muqaddima muallifi A.Irisov. Т.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashr, 1993.

Адабиётшунослик терминлари луғати.— Тошкент.: Ўқитувчи, 1970. – В. 247-248.

Бобоев Т. Шеър или таълими. Тошкент.: Ўқитувчи, 1996. – В.40.

Жўраев Ж. Комёб ҳаёти ва ижодий мероси манбалари тадқиқи: Филол. фан. номзоди... дис. – Тошкент. 2012. –В. 89.

Камол Ж. Сайланма. Олти томлик. IV том. Шеър санъати. Тошкент., “Янги аср авлоди”, 2018. – В.151-152.

Қаҳҳор А. Асарлар (олти томлик), 6- том, — Тошкент.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1971. – В. 253.

Мусульманкулов Р. Персидско-таджикская классическая поэтика X-XV вв. – М.: Наука, 1989. – С. 44

Тўйчиев У. Лирик тур белгилари // Адабий тур ва жанрлар. III жилдлик. 2-жилд. – Тошкент: Фан, 1992. –В.135.

Тўйчиев У. Ўзбек шеър системалари, Т.: Фан, 1981.

Фахриёр. Излам – Тошкент: Академнашр, 2017. – В.192.

Федотов О.И. Основы теории литературы. В 2-х ч. Ч.2.- М.: Владос, 2003. – С.106

Фитрат А. Адабиёт қоидалари. / Фитрат. Танланган асарлар. 4 ж. 4-ж.- Т.: Маънавият, 2006. – В.29.

Фитрат. Адабиёт қоидалари. — Самарқанд — Тошкент.: Уздавнашр, 1926. – В.44.

Шамси Қайси Розий. Ал-мужамъ. – Душанбе.: Адиб, 1991. – В.317-319.

Шукуров Н., Ҳотамов Н., Холматов Ш., Маҳмудов М. Адабиётшуносликка кириш. Тошкент.: Ўқитувчи, 1984. – В.183.

Эрназарова Г.Х. Ҳозирги ўзбек шеърятининг медитатив табиати. Филология фанлари доктори диссертацияси автореферати. Тошкент., 2020. – В.27.

Ҳусайний А. Бадойиъу-с-санойи. –Т.: Фафур Ғулом, 1981. – В.272.